

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70411601 – *Korporativ boshqaruv* magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari.....	4
1.2.3. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	8
2.4. Kvalifikatsiya.....	8
Bibliografik ma‘lumotlar.....	9
Kelishuv varag‘i	10

1. 70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *70411601 – Korporativ boshqaruv* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70411601 – Korporativ boshqaruv – Biznes va boshqaruv sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida korporativ boshqaruv faoliyatni tashkil etish va unga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslarini rivojlantirishda korporativ boshqaruvni usullarini joriy etish, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobilyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning tarkibidagi tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- Birjalar, banklar, aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalari, assosiasiyalar, konsernlar, uyushmalarida zamonaviy korporativ boshqaruv metodlarini joriy qilish;

- Qo'shma korxonalar, xorijiy korxonalar, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- Qishloq xo'jalik korxonalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining korporativ boshqaruv

tizimini rivojlantirish;

- Davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida boshqaruv jarayonlari;

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlari.

1.2.3. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;

- pedagogik faoliyat;

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;

- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;

- huquq-tartibot faoliyati;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;

- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

- 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda korporativ boshqaruv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- korporativ boshqaruvning miqdor va sifat me'zonlari iqtisodiy tizim va ob'ektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

- korporativ boshqaruv sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;

- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish.

Huquq-tartibot faoliyatida:

- qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'ektlarining korporativ boshqaruvi, turli mulk shakllarini himoya qilish;

- Manfaatdor guruxlar (jismoniy va yuridik shaxslar)ning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish;

- Korporativ munosabatlardagi jinoyatlar va qonunbuzarliklarni profilaktika qilish, ogohlantirish, aniqlash va ochish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot, korxon va ularning aloxida bo'linmalar korporativ boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt korporativ boshqaruv faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, korporativ boshqaruv sohasida rasionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan korporativ qarorlarni iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- korporativ loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informasion va imitasion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

- iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

- mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi:

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo'llay bilishi;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- korporativ tuzilmalar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

- korporativ tuzilmalar moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistrLAR mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistrLAR mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur

kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrnlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistrlar mutaxassisligi bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1800	60
Tanlov fanlar	900	30
Ilmiy amaliyot	300	10
Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	600	20

2.3.2. 70411601 – Korporativ boshqaruv mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1800	60	
1.01	ADVCG7.5	Korporativ boshqaruv 2	225	7,5	1
1.02	RESMET4.0/ METTSD3.5	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (4 ECTS) / Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (3,5 ECTS)	225	7,5	1
1.03	ADVFM7.5	Moliyaviy bozorlar 2	225	7,5	1
1.04	GLOBE7.5	Global biznes muhit	225	7,5	1
1.05	ADVECON7.5	Ekonometrika 2	225	7,5	2
1.06	CORGSR7.5	Korporativ ijtimoiy mas'uliyat	225	7,5	2
1.07	ADVCF7.5	Korporativ moliya 2	225	7,5	2
1.08	ADVICG7.5	Xalqaro korporativ boshqaruv 2	225	7,5	2
2.00		Tanlov fanlar	900	30	
2.00		<i>Tanlov fanlar (4)</i>	900	30	3
		Jami	2700	90	
	SCIPRC10	Ilmiy amaliyot	300	10	4
	FINPRO20	Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	600	20	4
		Jami	300	10	
		HAMMASI	3600	120	

2.4. Kvalifikatsiya: Iqtisodchi, boshqaruvchi (tadqiqotchi, pedagog)

UDK 002:651.1/7

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o'sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, investitsion muhit, o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, korporativ boshqaruv, moliyaviy bozorlar, global biznes muhit, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, korporativ moliya, xalqaro korporativ boshqaruv.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari



ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor K. Sharipov

202_yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor Sh. Yakubov

202_yil « _____ » _____

M.O'.

Toshkent moliya instituti

Rektor T. Leshabiev

202_yil « _____ » _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini
boshqarish agentligi huzuridagi
Xususiylashtirish va davlat aktivlarini
boshqarish muammolarini tadqiq etish

markazi
Direktor I.L. Butikov

202_yil « _____ » _____

M.O'.

“Freedom Finance” mas'uliyati cheklangan
jamiyati xorijiy korxonasi

Bosh direktor v.b. J. Sobirov

202_yil « _____ » _____

M.O'.

Kadrlar buyurtmachilari

Kadrlar buyurtmachilari

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

70411601-Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent moliya instituti rektori T.Teshabayev, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi direktori I.Butikov, "Freedom Finance" mas'uliyati cheklangan jamiyati xorijiy korxonasi Bosh direktor v.b. J.Sobirov, TDIU akademik faoliyat bo'yicha prorektori M.Eshov birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejaları mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 70411601-Korporativ boshqaruv magistratura mutaxassisligi

Yuqoridagi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Toshkent moliya instituti rektori



T. Teshabayev

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi direktori



I. Butikov

"Freedom Finance" mas'uliyati cheklangan jamiyati xorijiy korxonasi Bosh direktori



J. Sobirov

TDIU akademik faoliyat bo'yicha projektor



M. Eshov